



O'zbekiston Professional futbol ligasi
SUPERLIGA VA PROLIGA REGLAMENTI
2025

UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE



Mazkur reglament O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi bilan kelishilgan holda tasdiqlangan. U O'zbekistonda professional futbol klublari o'rtasida 2025-yilgi musobaqalarni o'tkazishning shartlari va nizomlarini belgilovchi me'yoriy hujjat hisoblanadi.

Reglament FIFA va OFK nizomlari hamda amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

Mundarija

1-bob	Umumiy qoidalar	6
2-bob	Musobaqa o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar	6
3-bob	Musobaqani boshqarish tartibi	6
4-bob	Musobaqa o'tkaziladigan joy	7
5-bob	Superliga va U21 chempionati formati	8
6-bob	U19 chempionati	8
7-bob	Proliga formati	9
8-bob	Musobaqa g'olibini aniqlash tartibi	10
9-bob	Musobaqa sovrindorlarini taqdirlash tartibi	10
10-bob	Klubning musobaqadagi faoliyatini tartibga solish	11
11-bob	Musobaqa hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi	13
12-bob	Futbolchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ro'yxatga olish tartibi	15
13-bob	Legioner va xorijlik mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazish uchun alohida shartlar	17
14-bob	Liga ro'yxatidan o'tgan futbolchining musobaqadagi ishtirokini tartibga solish	19
15-bob	Klub, klub rasmiysi hamda futbolchisi majburiyatini tartibga solish	20
16-bob	Rasmiy uchrashuvni o'tkazish tartibi	22
17-bob	Musobaqa qatnashchisining libosiga qo'yiladigan talablar	25
18-bob	Klubning OAV bilan ishlashini tartibga solish	27
19-bob	Klubning musobaqada ishtirok etishi uchun moliyaviy shartlar	27
20-bob	Liga komissarining musobaqadagi faoliyatini tartibga solish	29
21-bob	Musobaqada hakamlik qilishni tartibga solish	29
22-bob	Musobaqada nazoratchilik qilishni tartibga solish	30
23-bob	Hakam qaroriga shikoyat yoki e'tiroz berish tartibi	31

ISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

To'liq va qisqa nomlar — atamalar ta'rifi

Boshqaruv

FIFA	Xalqaro futbol federatsiyalari assotsiatsiyasi
OFK	Osiyo futbol konfederatsiyasi
O'FA	O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi (Assotsiatsiya)
O'zFHM	O'zbekiston futbol hakamlari markazi (Markaz)
O'zPFL	O'zbekiston professional futbol ligasi (Liga)
O'FU	O'zbekiston futbolchilari uyushmasi (Uyushma)
HA	Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy assotsiatsiyalari

Ishtirokchi

Professional klub	OFK litsenziyasini qo'lga kiritgan klub
Musobaqa qatnashchisi	Musobaqada ishtirok etayotgan klub
Farm jamoa	Professional klub qoshida tashkil etilgan zaxira jamoasi
FA	Futbol akademiyasi
FM	Futbol maktabi

Musobaqa

Musobaqa	Liga tomonidan o'tkaziladigan musobaqa
Superliga	O'zbekiston klublari ishtirokidagi oliy toifali musobaqa
Proliga	O'zbekiston klublari ishtirokidagi birinchi toifali musobaqa
U21 chempionati	Superliga klublarining 22 yoshgacha bo'lgan futbolchilari o'rtasida o'tkaziladigan birinchi raqamli musobaqa
U19 chempionati	Superliga va Proliganing 20 yoshgacha bo'lgan futbolchilari o'rtasida o'tkaziladigan birinchi raqamli musobaqa
Uchrashuv	Musobaqa doirasida o'tkaziladigan rasmiy o'yin

Rasmiy

Liga komissari	Liga tomonidan uchrashuvning tashkil etilishi va o'tkazilishini nazorat qilish uchun tayinlangan shaxs
Hakamlar nazoratchisi	Markaz tomonidan tayinlangan va uchrashuv davomida hakamlarni baholab boradigan shaxs

Hakam	Markaz tomonidan futbol o'yini qoidalari va tartibga soluvchi boshqa hujjatlarga muvofiq uchrashuvni nazorat qilish va boshqarish uchun tayinlangan shaxs
Video assistant referee	Video yordamchi hakam (VAR)
Stadion rasmiysi	Uchrashuv o'tadigan stadion uchun javobgar shaxs
Klub rasmiysi	Klub uchun javobgar bo'lgan hamda Liga ro'yxatidan o'tgan futbolchidan tashqari istalgan shaxs
Uchrashuv rasmiysi	Hakam, nazoratchi hamda Liga komissari
Xavfsizlik uchun mas'ul	Ichki ishlar, Milliy gvardiya yoki FVV xodimi, shuningdek, klubning xavfsizlik bo'yicha ofitseri, stadion styuardi
Legioner	O'zbekiston klubga ishlash uchun taklif etilgan chet ellik sportchi
Xorijiy mutaxassis	O'zbekiston klubiga ishlash uchun taklif etilgan xorij fuqarosi

Boshqalar

Mehnat shartnomasini ro'yxatga olish	Klubga tegishli futbolchi yoki rasmiy shaxsning musobaqada ishtirok etishi uchun u bilan tuzilgan mehnat shartnomasini Liga ro'yxatidan o'tkazish jarayoni
Transfer oynasi	Futbolchining kelgusi yoki joriy musobaqada ishtirok etishi uchun ro'yxatdan o'tishi mumkin bo'lgan davr
Transfer	Futbolchining musobaqada ishtirok etishiga ruxsat berilishi bilan yakunlangan bir klubdan boshqasiga o'tishi
Transfer shartnomasi	Futbolchining o'tish tartibi, muddati va shartlarini (shu jumladan, xarajatlarni qoplash shartnomasi mavjudligida futbolchining tayyorlanishi uchun sarflangan xarajatlarni to'lash) belgilovchi, klubning boshqa klub yoki sport maktabi bilan tuzadigan ikki tomonlama kelishuvi
Ijara shartnomasi	Ikki klub va futbolchi o'rtasida tuziladigan, o'tishning tartibi, muddati va shartlarini (shu jumladan, to'lovlar) belgilaydigan uch tomonlama shartnoma
XTS	Xalqaro transfer sertifikat
Mavsum	Kalendar yili doirasidagi rasmiy musobaqa vaqtini o'z ichiga olgan davr. Bu davr birinchi uchrashuv kunidan boshlanadi va oxirgi uchrashuv kuni bilan yakunlanadi.

UZBEKISTON
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE

1-bob

Umumiy qoidalar

1.1. Mazkur Reglament Superliga va Proliga musobaqalarini o'tkazish tartibini belgilaydi.

1.2. Musobaqa doirasidagi futbol uchrashuviga hakam va nazoratchi Markaz bilan imzolangan shartnoma asosida jalb qilinadi.

1.3. Mavsum yakunida Liga tashkilot ijroqo'mi talabi bilan o'z xarajatlari yuzasidan moliyaviy hisobot taqdim etadi.

1.4. Mazkur reglament ikki — o'zbek va ingliz tillarida mavjud. Ikki til o'rtasida ehtimoliy tafovut vujudga kelsa, u holda o'zbek tilida yozilgani ustuvor hisoblanadi.

2-bob

Musobaqa o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar

2.1. Musobaqa:

- O'zbekiston milliy chempionatini professional darajada tashkil etish va bu orqali mamlakat futboli rivojiga hissa qo'shish;
- musobaqa ishtirokchilari uchun yaxshi saviyadagi rasmiy uchrashuvlar tashkil qilish orqali klublarda to'p surayotgan futbolchilarning mahorat darajasini oshirishga erishish;
- O'zbekiston terma jamoalariga nomzod futbolchilar sonini ko'paytirish hamda murabbiylar uchun tanlov imkoniyatini kengaytirish;
- futbol muxlislarining hordiq chiqarishi uchun sharoit tashkil etish, ular uchun raqobatbardosh chempionat o'tkazish;
- O'zbekiston futbolini targ'ib etish va shu yo'l orqali o'zbekistonlik futbolchilarning chet el klublari nazariga tushishiga erishish kabi maqsadlarni ifoda etadi.

2.2. Musobaqani o'tkazishda:

- O'zbekiston terma jamoalarining xalqaro miqyosdagi rasmiy uchrashuvlarini inobatga olgan holda milliy chempionat uchrashuvlarini FIFA hamda OFK nizomlari asosida tashkil qilish;
- O'zbekiston klublarining xalqaro musobaqalardagi ishtirokiga ko'maklashishni ko'zlab taqvim rejalar ishlab chiqish va bunda FIFA hamda OFK tomonidan o'tkaziladigan xalqaro musobaqalarni, O'zbekistonda keng nishonlanadigan bayram tadbirlari hamda boshqa fors-major holatlarni inobatga olish;
- Superliga hamda Proliga o'rtasidagi tafovutning kamayib borishiga erishish, bunda mazkur ikki musobaqa qatnashchilarining professional klub uchun OFK tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro litsenziyalash talabiga javob berishi holatini nazorat qilish;
- OFK tomonidan o'tkaziladigan rasmiy musobaqalarda ishtirok etadigan klublarni aniqlash tizimini yaratish Liga vazifalariga kiradi.

3-bob

Musobaqani boshqarish tartibi

3.1. Musobaqani boshqarish, tashkil etish va o'tkazilishini nazorat qilish Liga tomonidan amalga oshiriladi.

3.2. Liga boshqa musobaqalar ham tashkil etadi va ularni quyidagi reglamentlar bilan tartibga soladi:

- "O'zbekiston kubogi, Superkubogi hamda o'tish musobaqalarini o'tkazish reglamenti";
- "Birinchi liga reglamenti".

3.3. Musobaqa mazkur reglament, shuningdek, FIFA, OFK, Assotsiatsiya, Liga tomonidan tasdiqlangan maxsus nizomlar, ilovalar asosida o'tkaziladi.

3.4. Liga klublarning barqarorlik reytingini shakllantirib boradi. Mazkur reyting so'nggi besh yillik natijalarni o'zida aks ettiradi hamda klubning professional tuzilma sifatida qanday faoliyat olib borayotganini ko'rsatuvchi asosiy mezon hisoblanadi.

Barqarorlik reytingi klubning Superliga (1.0), O'zbekiston kubogi (0.8), Proliga (0.6), U21 chempionati (0.2) hamda U19 chempionati (0.4) kabi musobaqalardagi so'nggi besh mavsum davomida to'plagan ochkolarining koeffitsienti yig'indisi asosida shakllantiriladi. Bunda klubning musobaqa davomida to'plagan umumiy ochkolari shu musobaqaning mazkur badda (qavs ichida) ko'rsatilgan koeffitsientiga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan musobaqalarning pley-off bosqichini muvaffaqiyatli yakunlagan jamoaga 3, mag'lub jamoaga 0 ochko hisoblanishi inobatga olinadi. O'tish o'yinlari natijalari mazkur reytingga kiritilmaydi.

4-bob

Musobaqa o'tkaziladigan joy

4.1. Musobaqa "Litsenziyalash reglamenti" talabiga muvofiq Liga tomonidan ruxsat etilgan stadionda o'tkaziladi.

4.2. Musobaqa qatnashchisi o'z stadioniga ega bo'lmasa hamda unda uy uchrashuvini o'tkazish uchun boshqa tashkilotga qarashli stadion bilan shartnoma tuzish majburiyati yuzaga kelsa, mazkur shartnoma Liga ishtirokida uch tomonlama tuzilishi talab etiladi.

Stadion bevosita klubga tegishli bo'lsa, shartnoma klub va Liga o'rtasida tuziladi.

4.3. Fors-major holatida uchrashuvni o'tkazish uchun stadionni o'zgartirishga to'g'ri kelsa, mezbon klubga Liga bilan uch tomonlama kelishuvga erishgan stadionda rasmiy uchrashuvni o'tkazish uchun ruxsat beriladi.

4.4. Rasmiy uchrashuvdan bir kun avval mezbon klub Liga komissariga stadionning o'yinga tayyorligi to'g'risida dalolatnoma taqdim etishi lozim. Liga komissari mazkur dalolatnomasiz uchrashuvni o'tkazmaslikka haqli.

4.5. Superliga klubi yangi mavsumda o'zining uy uchrashuvini o'tkazadigan stadionni yilning 25-dekabr sanasiga qadar Liga ro'yxatidan o'tkazishi talab etiladi. Superliganing U21 jamoasi uy uchrashuvini o'tkazadigan stadion esa 15-fevral sanasiga qadar Liga ro'yxatidan o'tkazilishi lozim.

Proliga klubi yangi mavsum o'zining uy uchrashuvini o'tkazadigan stadionni 20-yanvar sanasiga qadar Liga ro'yxatidan o'tkazishi kerak.

Superliga yoki Proliga klubining U19 jamoasi uy uchrashuvini o'tkazadigan stadion 25-fevral sanasiga qadar Liga ro'yxatidan o'tkazilishi talab etiladi.

5-bob

Superliga va U21 chempionati formati

5.1. Superliga va U21 chempionati jami 30 turdan iborat ikki davrali tizimda o'tkaziladi. Bunda har bir klub 15 ta uy va 15 ta safar uchrashuvida ishtirok etadi.

5.2. Superligada 16-o'rinni egallagan jamoa kelasi mavsumni Superligada o'tkazish imkoniyatini yo'qotadi va Proligaga tushiriladi.

5.3. Superligada 12, 13, 14, 15-o'rinni egallagan jamoalar mazkur musobaqadagi joyini saqlab qolish uchun pley-off musobaqasida ishtirok etadi. Pley-off uch bosqichdan iborat bo'lib, undagi barcha uchrashuv faqat bir martadan tashkil etiladi:

- birinchi bosqichda Superligada 12-o'rinni egallagan klub o'z maydonida 15-o'rindan joy olgan klubni, 13-o'rinni egallagan klub esa o'z maydonida 14-o'rindan joy olgan klubni qabul qiladi va har ikki o'yin g'oliblari Superligadagi joyini saqlab qoladi;
- ikkinchi bosqichda birinchi bosqichdagi ikki o'yinda mag'lub bo'lgan jamoalar o'zaro to'qnash keladi. Bunda Superliga mavsumi yakuniga ko'ra yuqoriroq o'rindan joy olgan klub raqibini o'z maydonida qabul qiladi va bellashuv g'olibi Superligadagi joyini saqlab qoladi;
- uchinchi bosqichda ikkinchi bosqichda mag'lub bo'lgan klub Proliga mavsumini 2-o'rinda yakunlagan klub maydoniga tashrif buyuradi va mazkur bellashuv g'olibi Superligada ishtirok etish huquqini qo'lga kiritadi.

5.4. U21 chempionati uchrashuvi asosiy tarkib ishtirokidagi uchrashuvdan bir kun keyin o'tkaziladi. Bunda U21 jamoasi asosiy tarkib o'z uchrashuvini o'tkazgan stadiondan foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi.

5.5. U21 jamoasi uchun maydoni talabga javob bermaydigan klub shu maydonni Liga ro'yxatidan o'tkaza olmaydi. Bunday holatda U21 jamoasi ishtirokidagi uchrashuv raqib jamoaning U21 jamoasi maydoniga ko'chiriladi.

Agar har ikki klub U21 jamoasi maydonini Liga ro'yxatidan o'tkaza olmagan bo'lsa, u holda mezbon jamoaga texnik mag'lubiyat yoziladi.

5.6. Musobaqaga Berger tizimida qur'a tashlanadi. Bunda Liga stadion, shahar hamda boshqa asosli sababdan kelib chiqib, tegishli klublarni qur'a oldidan alohida savatga yoki juftlikka ajratib olish huquqiga ega.

6-bob

U19 chempionati

6.1. Superliga va Proliga klubining U19 jamoasi U19 chempionatida birgalikda ishtirok etadi.

6.2. U19 chempionati ikki bosqichda o'tkaziladi: mintaqaviy bosqich va pley-off bosqichi.

6.3. Mintaqaviy bosqichda qatnashchilar ikki mintaqaga — sharq va g'arb mintaqasiga ajratiladi. Bunda har bir jamoa o'zi joy olgan mintaqaning qolgan jamoalariga qarshi uy-safar o'yinida ishtirok etadi.

6.4. Mintaqaviy bosqich yakuniga ko'ra har bir mintaqaning eng yaxshi to'rttadan jamoasi pley-off bosqichiga yo'l oladi.

6.5. U19 chempionatining pley-off bosqichi markazlashtirilgan holda bitta shaharda bo'lib o'tadi va unda shu bobning 4-bandidan kelib chiqib, umumiy 8 ta jamoa musobaqa g'olibligi uchun kurash olib boradi.

6.6. Musobaqa pley-offi 1/4 va 1/2 bosqichlaridan, shuningdek, 3-o'rin uchun o'yin hamda finaldan iborat bo'ladi. Bunda barcha bosqichda juftliklar faqatgina bitta o'yinda maydonga tushadi.

6.7. Pley-offning 1/4 final bosqichida sharqiy mintaqaga g'olibi g'arbiy mintaqaning to'rtinchi jamoasiga qarshi, sharqiy mintaqaning ikkinchi jamoasi esa g'arbiy mintaqaning uchinchi jamoasiga qarshi juftlik hosil qiladi. Mazkur ikki juftlik g'olibi 1/2 finalda o'zaro to'qnash keladi.

Mos ravishda g'arbiy mintaqaga g'olibi sharqiy mintaqaning to'rtinchi jamoasiga qarshi, g'arbiy mintaqaning ikkinchi jamoasi esa sharqiy mintaqaning uchinchi jamoasiga qarshi juftlik hosil qiladi. Mazkur ikki juftlik g'olibi 1/2 finalda o'zaro to'qnash keladi.

6.8. Pley-off bosqichida o'z mintaqasida egallagan o'rni yaxshiroq jamoa har qanday holatda ham nominal mezbon hisoblanadi. Bir xil ko'rsatkich qayd etgan ikki jamoa o'zaro to'qnash kelsa, mazkur holatda sharq mintaqasi jamoasi nominal mezbon hisoblanadi.

6.9. Pley-off bosqichi o'yinlarida kuchlar teng kelsa, navbat qo'shimcha taymlarsiz penaltilar seriyasiga beriladi.

7-bob

Proliga formati

7.1. Proliga jami 20 turdan iborat to'rt davrali tizimda o'tkaziladi. Bunda har bir klub 10 ta uy va 10 ta safar uchrashuvida ishtirok etadi.

7.2. Proliga yakuniga ko'ra 1-o'rinni egallagan futbol klubi Superligaga to'g'ridan to'g'ri yo'llanmani qo'lga kiritadi.

7.3. Proligada 2-o'rinni egallagan futbol klubining Superligada ishtirok etishi masalasi mazkur reglamentning 5.3-bandidan kelib chiqib tartibga solinadi.

7.4. Proligada 6-o'rinni egallagan jamoa kelasi mavsumni Proligada o'tkazish imkoniyatini yo'qotishi mumkin.

7.5. Proliga musobaqasiga Berger tizimida qur'a tashlanadi. Bunda Liga stadionlar, shaharlar hamda boshqa asosli sabablardan kelib chiqib, futbol klublarini qur'a oldidan alohida savatlarga yoki juftliklarga ajratib olish huquqiga ega.

8-bob

Musobaqa g'olibini aniqlash tartibi

8.1. Musobaqa qatnashchisining o'rnini uning to'plangan ochkolari yig'indisiga ko'ra aniqlanadi.

8.2. Har bir uchrashuvdagi g'alaba uchun musobaqa qatnashchisiga 3 ochko, durang uchun 1 ochko, mag'lubiyat uchun 0 ochko yoziladi.

8.3. Ikki va undan ortiq qatnashchi to'plagan ochkolar teng bo'lib qolsa, ularning o'rnini quyidagi ketma-ketlik bo'yicha aniqlanadi:

- o'zaro uchrashuv(lar) natijasiga ko'ra;
- o'zaro uchrashuvlarda olingan ochkolar natijasiga ko'ra;
- o'zaro uchrashuvlarda urilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar farqiga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda urilgan va o'tkazib yuborilgan to'plar farqiga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda urilgan to'plar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda raqib maydonida urilgan to'plar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda erishilgan g'alabalar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda safar o'yinlarida erishilgan g'alabalar soniga ko'ra;
- barcha uchrashuvlarda uy o'yinlarida uchrashgan mag'lubiyatlar sonining aks ta'siriga ko'ra.

8.4. Mazkur bobning 3-bandidagi barcha ko'rsatkichlar teng bo'lib qolsa, qatnashchining U19 jamoasi natijasiga e'tibor qaratiladi. Biroq vaziyat chempion yoki Chempionlar ligasida ishtirok etish huquqini beradigan o'rinni aniqlashni taqozo etayotgan bo'lsa, betaraf maydonda "oltin" uchrashuv o'tkaziladi.

8.5. O'zaro uchrashuv yoki uchrashuvlarda texnik mag'lubiyatga uchragan jamoa shu bobning 3 hamda 4-bandlaridan istisno tariqasida quyi o'rinni egallaydi.

8.6. Musobaqaning davom etishi va uning natijasini aks ettiradigan rasmiy ma'lumot Liga matbuot xizmati tomonidan tarqatiladi.

9-bob

Musobaqa sovrindorlarini taqdirlash tartibi

9.1. Superligada 1-o'rinni egallagan klubga O'zbekiston chempioni uchun atalgan maxsus kubok hamda 50 dona "oltin" medal taqdim etiladi.

9.2. Superliga chempioni muddatdan oldin aniqlansa, maxsus kubok hamda medallar klubning keyingi rasmiy uy yoki safar uchrashuvida topshiriladi.

9.3. Superligada ikkinchi va uchinchi o'rinni egallagan klublarga 50 donadan "kumush" va "bronza" medallari topshiriladi.

9.4. U21 chempionatida 1, 2 va 3-o'rinni egallagan jamoalarga 35 donadan "oltin", "kumush" hamda "bronza" medallari topshiriladi. Shuningdek, g'olib jamoa musobaqa kubogiga ega chiqadi.

9.5. U19 chempionatida 1, 2 va 3-o'rinni egallagan jamoalarga 35 donadan "oltin", "kumush" va "bronza" medallari topshiriladi. Shuningdek, g'olib jamoa musobaqa kubogiga ega chiqadi.

9.6. Proligada 1-o'rinni egallagan klubga Proliga kubogi hamda 35 dona medal taqdim etiladi.

9.7. Taqdirlash atributikalari Liga hisobidan tayyorlanadi.

10-bob

Klubning musobaqadagi faoliyatini tartibga solish

10.1. Klubning musobaqaga qo'shilishi yoki undan chiqib ketishi masalasi o'tgan mavsum musobaqasi natijasiga ko'ra aniqlanadi.

10.2. Klub musobaqada qaysi o'rinni egallashidan qat'i nazar agar u litsenziyalash talablarini bajara olmasa, Assotsiatsiya tegishli qo'mitasi litsenziyalash tahlillari asosida shu klubni musobaqadan chetlatishni talab qilish huquqiga ega.

10.3. Yakuniga yetgan mavsum natijasiga ko'ra yuqori toifadagi ligada qatnashish huquqini qo'lga kiritgan klub ushbu huquqdan voz kechsa yoki unda mazkur ligada ishtirok etish uchun reglament, me'yoriy hujjatlar asosida qandaydir to'siq (cheklov) bo'lsa, uning o'rni mavsum yakuniga ko'ra keyingi o'rinni egallagan boshqa klub bilan to'ldiriladi. Musobaqani to'g'ridan to'g'ri tark etgan klub bundan mustasno.

10.4. Superliga klubi OFK tomonidan yangi mavsum uchun taqdim etiladigan litsenziyani qo'lga kiritgan klub bo'lsa, mazkur klub ilk yozgi transfer oynasida faqatgina 2003-yil va undan kichik yoshda bo'lgan yangi futbolchini, shuningdek, ilk qishki transfer oynasida faqatgina mahalliy futbolchini ro'yxatdan o'tkazishi uchun ruxsat etiladi.

10.5. Faqatgina OFK litsenziyasini qo'lga kiritgan klubga Assotsiatsiya tomonidan professional klub maqomi beriladi.

10.6. Klub joriy yilning 22 mayiga qadar "Litsenziyalash reglamenti" talablarini bajarishi shart. Bunda:

- sport, infratuzilma, ishchi-xodimlar hamda huquqiy mezonlar bo'yicha talablar joriy yilning 28 fevraliga qadar;
- moliyaviy mezonlar bo'yicha talablar joriy yilning 10 apreliga qadar bajarilishi lozim.

10.7. Klub tarkibida U21 (Superliga klubi uchun), U19, U16, U14, U12, U10 jamoalari faoliyat yuritishi va mazkur jamoalar Assotsiatsiya, HA yoki Liga tomonidan o'tkaziladigan musobaqada ishtirok etishi lozim.

Mavjud me'yoriy hujjatlar asosida klub qoshida yana qanday jamoalarning bo'lishi majburiy ekanligi Assotsiatsiya tomonidan alohida belgilab beriladi.

10.8. Superliga klubining U21 jamoasi O'zbekiston U21 chempionatida, Superliga va Proliga klubining U19 jamoasi esa O'zbekiston U19 chempionatida ishtirok etishi talab etiladi.

10.9. O'zbekiston milliy va olimpiya terma jamoasiga uch va undan ko'p futbolchisi jalb qilingan klub musobaqa doirasidagi uchrashuv sanasini boshqa kunga ko'chirishni so'rab murojaat qilishga haqli.

10.10. OFK shafeligidagi musobaqa sanasi o'zgargan taqdirda Liga mazkur musobaqada ishtirok etayotgan klub manfaatidan kelib chiqib, uning ichki musobaqa doirasidagi uchrashuvini boshqa sanaga ko'chirishga haqli.

10.11. Uchrashuvga asossiz ravishda kelmagan yoki boshqa sababga ko'ra texnik mag'lubiyat qayd etilgan jamoaga 0:3 hisobidagi texnik mag'lubiyat, raqib jamoaga esa 3:0 hisobidagi texnik g'alaba yoziladi.

10.12. Mazkur bobning 11-bandi bo'yicha ikki marta texnik mag'lubiyat qabul qilib olgan klub (U21 chempionati bundan mustasno) Liga Ijroqo'mi qarori bilan musobaqa qatnashchilari safidan chiqariladi.

10.13. Klub uchrashuvni davom ettirishdan bosh tortsa va o'sha vaqtda hisob 0:3 dan yirikroq ko'rinishda bo'lsa, uchrashuvni davom ettirishdan bosh tortgan klubga mavjud hisob bilan texnik mag'lubiyat yoziladi.

Uchrashuv yakuniga ko'ra klubga texnik mag'lubiyat yozish zaruriyati vujudga kelsa va o'sha jamoa uchrashuvda 0:3 dan yirikroq hisobda mag'lubiyatga uchragan bo'lsa, texnik mag'lubiyat mavjud hisob bilan qayd etiladi.

10.14. Musobaqa qatnashchilari safidan chetlashtirilgan klub shu musobaqa doirasidagi uchrashuvlarning 50 foizidan kamini o'tkazgan bo'lsa, uning natijalari bekor qilinadi. Ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchini saqlab qoladi.

Musobaqa qatnashchilari safidan chetlashtirilgan klub uchrashuvlarning 50 foizi va undan ko'pini o'tkazgan bo'lsa, bunday klubga qolgan uchrashuvlar uchun texnik mag'lubiyat (0:3), raqib jamoaga esa texnik g'alaba (3:0) yoziladi. Ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchini saqlab qoladi.

Fors-major holati sabab musobaqa formatiga o'zgartirish kiritilgan bo'lsa, uchrashuvlar foizini aniqlash shu o'zgarishga asosan hisoblanadi.

10.15. Klub reglament asosida musobaqa qatnashchilari safidan chiqarib yuborilsa, ammo faoliyatini davom ettirsa, u holda mazkur klubga Liga Ijroqo'mi qarori bilan Liga oldidagi majburiyatlarini to'liq bajarish shartida kelasi mavsumni bitta quyi ligadan boshlash imkoniyati berilishi mumkin.

10.16. Agar klub faoliyatini tugatsa, u Liga qatnashchilari safidan chetlashtiriladi. Har qanday boshqa klub shu klubning nomi, atributlari, belgilari, ramzlari va tarixidan foydalanishiga yo'l qo'yilmaydi. Agar mazkur klub faoliyatini qayta tiklasa, u holda o'z ishtirokini HA tomonidan o'tkaziladigan Ikkinchi liga musobaqasidan boshlashi talab etiladi.

10.17. Klub O'zbekiston qonunchiligi asosida o'z nomi yoki tashkiliy-huquqiy shaklini o'zgartirsa, yangi klub avvalgi klubning huquqiy vorisi hisoblanadi va futbolchi, murabbiy, klubning boshqa xodimi oldida oylik ish haqi hamda boshqa to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblardagi buzilishlar uchun to'liq javobgar bo'ladi. Shuningdek, u Assotsiatsiya, Liga va O'zbekiston soliq organlari oldidagi qarzdorlikni to'lash uchun javobgar hisoblanadi.

10.18. Superliga klubi musobaqada futbolchining funksional holatini masofadan turib monitoring qilish imkonini beruvchi moslamadan foydalanishi hamda bu boradagi hisobotni Assotsiatsiya uchun taqdim etishi talab etiladi.

10.19. Superliga klubi stadionning yoritish tizimi belgilangan talabga javob bermasa, Liga uchrashuvni yoritish tizimi talabga javob beradigan boshqa stadiona o'tkazish bo'yicha qaror chiqarishga haqli.

10.20. Klub va shu klub qoshidagi farm jamoa qayd etgan natijasidan qat'iy nazar boshqa-boshqa musobaqada ishtirok etishi shart.

11-bob

Musobaqa hujjatlari va ularni rasmiylashtirish tartibi

11.1. Klub musobaqada ishtirok etish oldidan yangi mavsum uchun yillik xarajatlar smetasi loyihasini shu klubni moliyalashtiruvchi tashkilot hamda Assotsiatsiya bilan kelishilgan holda tasdiqlatgan bo'lishi talab etiladi.

11.2. Shu bobning 1-bandi bo'yicha tasdiqlangan yillik xarajatlar smetasi klubning musobaqada ishtirok etishini kafolatlovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

11.3. Klub uy uchrashuvlarini o'tkazuvchi stadionlar akti mavsumning ilk rasmiy uchrashuvi sanasidan kamida uch hafta avval Ligaga taqdim etishi talab etiladi.

11.4. Klubdan talab qilinadigan hujjatlarni Liga uchun rasmiylashtirish huquqi klub rahbariyati tomonidan vakolatli shaxslarga (sport direktori, texnik direktor yoki litsenziyalash menejeri) beriladi.

11.5. Klub o'z rasmiysi va futbolchisini MyLeague platformasi orqali onlayn ro'yxatdan o'tkazishi lozim. Ro'yxatga olish uchun quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

Klub rasmiysi uchun:

- fuqarolik pasporti yoki ID karta;
- klub bilan tuzilgan mehnat shartnomasi;
- O'zbekistonda ishlash huquqini beruvchi tasdiqnoma (xorijlik mutaxassis uchun);
- mutaxassislik bo'yicha diplom yoki sertifikat;
- fotosurat.

Klub murabbiyi uchun:

- fuqarolik pasporti yoki ID karta;
- klub bilan tuzilgan mehnat shartnomasi;
- O'zbekistonda ishlash huquqini beruvchi tasdiqnoma (xorijlik murabbiy uchun);
- talab etilgan murabbiylik litsenziyasi;
- fotosurat.

Futbolchi uchun:

- fuqarolik pasporti yoki ID karta;
- tug'ilganlik haqidagi guvohnoma (ilk mehnat shartnomasini imzolayotgan futbolchi uchun);
- klub bilan tuzilgan mehnat shartnomasi;
- O'zbekistonda ishlash huquqini beruvchi tasdiqnoma (xorijlik futbolchi uchun) hamda XTS;
- futbolchi pasporti;
- transfer shartnomasi, ijara shartnomasi yoki sobiq klubi bilan mehnat munosabatlari bekor qilinganligi tasdiqlovchi hujjatlardan biri: mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risidagi kelishuv, klub va futbolchi o'rtasidagi munosabatlar yakuni bo'yicha o'zaro e'tiroz mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjat;
- mashg'ulot kompensatsiyasi shartnomasi yoki mashg'ulot kompensatsiyasidan voz kechish to'g'risidagi hujjat (23 yoshgacha bo'lgan futbolchi uchun);
- futbolchining talab etilgan tibbiy tekshiruvdan o'tganligini tasdiqlovchi hujjat;
- fotosurat.

Bunda platformaga yuklangan har qanday hujjat asl nusxasi bilan mos kelishi shart.

11.6. Klub faqatgina onlayn ro'yxatdan o'tkazilgan vakili uchun litsenziya olish huquqiga ega.

11.7. Musobaqada ishtirok etish huquqini beruvchi litsenziya hujjatlari rasmiylashtirilganidan so'ng (talab etilgan hujjatlar to'liq taqdim etilgan hamda klub vakillari elektron bazaga kiritilgach) litsenziyalar klubning vakolatli vakiliga uning imzosi bilan tasdiqlangan shaxsiy mas'uliyati ostida quyidagi shartlarda taqdim etiladi:

- reglamentning 10.18 bandida qayd etilgan texnologiya bilan ishlash huquqini beruvchi litsenziya mavsum yakuniga qadar sotib olinganligini isbotlovchi hujjat Ligaga topshirilganda;
- videotahlillar asosida futbolchining rasmiy uchrashuvlardagi statistik ko'rsatkichlari haqida ma'lumot beruvchi markazlashtirilgan kompaniya bilan tuzilgan shartnoma Ligaga topshirilganda.

Mazkur hujjatlarsiz klub 2002-yil va undan katta yoshdagi futbolchi litsenziyasiga ega chiqa olmaydi.

11.8. Klubning vakolatli vakili mazkur bobning 7-bandi bo'yicha qabul qilib olgan litsenziya yo'qotilishi yoki boshqa sabab bilan qayta chop etilishi zaruriyati vujudga kelsa hamda mazkur holat klub aybi bilan ro'y bersa, u holda litsenziya jarima to'lovi evaziga Liga tomonidan qayta chop etiladi.

11.9. Professional klub maqomiga ega chiqish istagida bo'lgan klub "Litsenziyalash reglamenti"ga asosan o'z rahbariyati tarkibini quyidagi ko'rinishda Liga ro'yxatidan

o'tkazishi lozim (qavs ichida musobaqada ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazilishi shart bo'lgan shtat birligi ko'rsatilgan). Bunda:

- bosh direktor/menejer (majburiy);
- sport direktori;
- texnik direktor;
- xavfsizlik bo'yicha ofitser;
- matbuot kotibi;
- bosh murabbiy (majburiy);
- katta/yordamchi murabbiy (majburiy);
- jismoniy tayyorgarlik bo'yicha murabbiy;
- darvozabonlar murabbiyi;
- tahlilchi;
- ma'mur (majburiy);
- shifokor (majburiy);
- massajchi/fizioterapevt;
- yuriskonsult;
- yoshlar bilan ishlash tizimi mas'uli (akademiya yoki futbol maktabi direktori);
- U19 (majburiy), U17 — U10 jamoalari bosh murabbiylari.

“Litsenziyalash reglamenti” hamda klubning qaysi musobaqada ishtirok etishiga qarab, uning Liga ro'yxatidan o'tishi shart bo'lgan rasmiylari ro'yxati tartibga solinadi.

11.10. Klubning mavsum uchun qaydnomasidan joy olgan futbolchiga klub tomonidan bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) kamida 150 baravari miqdorida sug'urta tovonini bilan sug'urtalangan bo'lishi va mazkur sug'urta tovonini aks etgan polis Ligaga taqdim etilishi lozim.

Liga ro'yxatidan o'tgan, biroq asosiy tarkibning mavsum uchun qaydnomasidan joy olmagan futbolchi hamda klub rasmiysi sifatida uchrashuv qaydnomasidan o'rin oladigan har bir shaxs bazaviy hisoblash miqdorining (BHM) kamida 30 baravari miqdorida sug'urta tovonini bilan sug'urtalangan bo'lishi va mazkur sug'urta tovonini aks etgan polis Ligaga taqdim etilishi lozim.

12-bob

Futbolchi bilan tuzilgan mehnat shartnomasini ro'yxatga olish tartibi

12.1. Futbolchini musobaqa uchun ro'yxatdan o'tkazish 2024-yilning 10-dekabr sanasidan boshlanadi. Superliga klubi uchun futbolchini ro'yxatdan o'tkazish 2025-yilning 25-fevral sanasida, Proliga klubi uchun shu yilning 28-fevral sanasida yakuniga yetadi. Bunda Proliga klubi legioner futbolchini faqatgina shu yilning 25-fevraliga qadar ro'yxatdan o'tkazishi uchun ruxsat etiladi.

Yozgi transfer oynasi 2025-yilning 1-iyulidan shu yilning 30-iyuliga qadar davom etadi.

12.2. Klub futbolchi yoki murabbiy bilan yilning istalgan davrida mehnat shartnomasi tuzish hamda unga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Mazkur mehnat

shartnomasi yoki unga kiritilgan o'zgarish imzolangan kundan boshlab 20 kun ichida Liga ro'yxatidan o'tkazilishi talab etiladi.

12.3. Klub o'z vakili bilan tuzilgan mehnat shartnomasini bekor qilsa, Liga uch kun ichida bu haqda yozma ravishda ogohlantirilishi hamda ozod etilgan shaxs litsenziyasi Ligaga qaytarilishi shart.

12.4. Superliga klubi qishki transfer oynasida 10 nafar va yozgi transfer oynasida 5 nafar futbolchi hamda bir nafar darvozabondan ortiq bo'lmagan yangi futbolchini ro'yxatdan o'tkazishi uchun ruxsat etiladi.

Shu mavsumda Superliga qatnashchilari safiga qo'shilgan klubga qishki transfer oynasida 15 nafargacha yangi futbolchini ro'yxatdan o'tkazish uchun ruxsat etiladi.

12.5. Klub tomonidan ijaraga olinayotgan futbolchi mazkur bobning 4-bandiga ko'ra yangi futbolchi sifatida qayd etiladi (o'tgan mavsum yakunida shu klub safida ijara asosida to'p surgan yoki boshqa klubga ijaraga berilgan futbolchi bundan mustasno).

12.6. Klub 2003-yil va undan kichik yoshdagi yangi mahalliy futbolchi bilan (darvozabon uchun 2002-yil) shartnoma imzolasa, mazkur futbolchi shu bobning 4-bandida qayd etilgan limitdan tashqari ro'yxatdan o'tkaziladi.

12.7. Klub o'ziga qarashli bo'lgan akademiya/maktab yoki shu klubga birlashtirilgan akademiya/maktab tarbiyalanuvchisini (2006 va undan keyin tug'ilgan) Superliga va Proliga uchun faqatgina transfer oynasi vaqtida mavsum uchun qaydnomaga kiritishga haqli.

12.8. Klub o'ziga qarashli/birlashtirilgan akademiya/maktab tarbiyalanuvchisini U19 chempionati uchun yilning istalgan davrida Liga ro'yxatidan o'tkazishga haqli.

12.9. Klub boshqa klubga qarashli akademiya/maktab tarbiyalanuvchisini U19 chempionati uchun 2025-yilning 15-sentabriga qadar Liga ro'yxatidan o'tkazishi uchun ruxsat etiladi.

12.10. Futbolchiga litsenziya uning tibbiy ko'rikdan o'tganligi borasidagi ma'lumotnoma taqdim etilishi shartida beriladi. Bunda tibbiy ko'rik xulosasi Assotsiatsiya tibbiy qo'mitasi tomonidan belgilab berilgan ro'yxat bo'yicha olib borilishi va futbolchining har bir tekshiruv bo'yicha tahlili alohida-alohida xulosa bilan taqdim etilishi shart.

Assotsiatsiya talabi bilan Superliganing mavsum uchun qaydnomasidan joy olgan futbolchi Milliy olimpiya qo'mitasi qoshidagi tibbiyot markazida tibbiy ko'rik tashkil qiladi. O'z navbatida, tibbiyot markazi har bir futbolchining tibbiy xulosalarini o'zida jamlagan yagona elektron platforma shakllantiradi.

12.11. Superliga klubining mavsum uchun qaydnomasidan o'rin olgan futbolchisi bilan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining to'rt barobaridan kam bo'lmagan summada mehnat shartnomasi imzolanishi talab etiladi. Proliga klubida bu ko'rsatkich mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining ikki barobaridan kam bo'lmagan summani tashkil qilishi lozim.

13-bob

Legioner va xorijlik mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazish uchun alohida shartlar

13.1. Legioner yoki xorijlik mutaxassis bilan shartnoma tuzish jarayonida klub quyidagilarni hisobga olishi talab etiladi:

- klub 2025/26-yilgi mavsum uchun OFK litsenziyasini qo'lga kiritgan bo'lishi shart (legioner futbolchi bilan amaldagi mehnat shartnomasi mavjud bo'lgan klub bundan mustasno);
- legioner yoki xorijlik mutaxassis bilan shartnoma imzolashdan avval klub mazkur shartnoma loyihasini Assotsiatsiya bilan kelishishi va shundan keyingina uni imzolashi talab etiladi;
- klub legioner yoki xorijlik mutaxassis bilan imzolangan mehnat shartnomasini Liga ro'yxatidan o'tkazishi uchun Assotsiatsiya yuridik bo'limi uning har bir sahifasini muhrlagan hamda imzolagan bo'lishi shart;
- ro'yxatdan o'tkazilgan legioner yoki xorijlik mutaxassisga musobaqada ishtirok etish uchun litsenziya tegishli davlat organi tomonidan chet el fuqarosiga O'zbekistonda mehnat faoliyati huquqini beruvchi tasdiqнома Ligaga rasman topshirilganidan so'ng beriladi.

13.2. Ro'yxatdan o'tkazilayotgan legioner Liga tomonidan to'rt toifa: oliy, birinchi, ikkinchi va uchinchi toifaga ajratib olinadi.

Oliy toifa:

- Yevropa yoki Jahon chempionatining final bosqichi doirasida maydonga tushgan futbolchi;
- UEFA koeffitsientlar jadvalida dastlabki yetti o'rinda borayotgan mamlakatlar oliy divizionining yakuniga yetgan so'nggi mavsumida yoki davom etayotgan mavsumida kamida 10 ta o'yinda maydonga tushgan futbolchi.

Birinchi toifa:

- 2005-yil va undan keyin tug'ilgan, so'nggi ikki mavsum davomida o'z mamlakati terma jamoasining rasmiy musobaqa doirasidagi o'yinlarida eng kamida ikki marta maydonga tushgan futbolchi.

Ikkinchi toifa:

- FIFA reytingida dastlabki 20 pog'onada borayotgan terma jamoa safida hech bo'lmaganda bitta rasmiy musobaqa doirasidagi o'yinda maydonga tushgan 1994-yil va undan keyin tug'ilgan futbolchi;

- o'z mamlakati milliy terma jamoasining rasmiy musobaqa doirasidagi o'yinlarida so'nggi ikki yil davomida kamida 2 marta maydonga tushgan futbolchi.

Uchinchi toifa:

- istalgan legioner.

13.3. Legioner yoki xorijlik mutaxassis xizmatidan foydalanuvchi klub ularni yangi mavsum hisobidan Liga ro'yxatidan o'tkazish uchun bir martalik pullik to'lovni amalga oshiradi (birinchi toifali legioner bundan mustasno). Agar legioner yozgi transfer oynasida boshqa klub safiga o'tsa, uning yangi klubi legioner futbolchi uchun to'lov amalga oshirmaydi. Bunda:

- oliy toifaga kiruvchi legioner uchun to'lov tasdiqlangan tayanch miqdorning teng yarmini tashkil qiladi;
- ikkinchi toifaga kiruvchi legioner uchun to'lov tasdiqlangan tayanch miqdorda amalga oshiriladi;
- uchinchi toifaga kiruvchi legioner uchun to'lov tasdiqlangan tayanch miqdorning ikki barobari miqdorida amalga oshiriladi;
- Proliga klubi har qanday legioner uchun (birinchi toifali legioner bundan mustasno) bir xilda — tasdiqlangan tayanch miqdor ko'rinishining teng yarmida to'lov amalga oshiradi.

Klubning legioner bilan amaldagi shartnomasi mavjud bo'lsa yoki klub o'z safida o'tgan mavsum ham harakat qilgan legioner bilan shartnomani uzaytirs, mazkur holatda shu bobning 6-bandi ikkinchi xatboshisi inobatga olinadi.

13.4. Klub 6 nafargacha legioner futbolchini ro'yxatdan o'tkazish huquqiga ega.

13.5. Tizimida farm jamoasi mavjud klub mazkur farm jamoa uchun legioner ro'yxatdan o'tkazishga haqli. Bunda shu bobning 4-bandida qayd etilgan cheklov farm jamoa hamda klub uchun umumiy hisoblanadi.

13.6. Klub legionerni ro'yxatdan o'tkazishda quyidagi imtiyozlardan foydalanishi mumkin:

- agar legioner uzluksiz ketma-ket to'rt mavsumni O'zbekiston klublarida o'tkazgan bo'lsa va 2025-yilgi mavsum tartib bo'yicha uning ketma-ket beshinchi mavsumi bo'lsa, mazkur legioner uchun to'lov amalga oshirilmaydi;
- agar legioner bir klub safida ketma-ket ikkinchi yoki undan ortiq mavsum davomida ro'yxatdan o'tayotgan bo'lsa, mazkur futbolchi uchun belgilangan to'lov 50 foizga qisqartiriladi;
- agar legioner birinchi toifaga mansub bo'lsa, klub uni shu bobning 4-bandida qayd etilgan cheklov miqdoriga qo'shimcha ravishda ro'yxatdan o'tkazishi uchun ruxsat etiladi.

13.7. Liga quyidagi holatlarda legionerni ro'yxatdan o'tkazmaslikka haqli:

- legionerni ro'yxatdan o'tkazish uchun kelgan klubda OFK litsenziyasi mavjud bo'lmasa;
- legionerni ro'yxatdan o'tkazish uchun to'lov amalga oshirilmagan bo'lsa;
- legioner bilan imzolangan mehnat shartnomasi Assotsiatsiya bilan kelishilmagan bo'lsa;
- legioner bilan bog'liq qarzdorlik sabab Assotsiatsiya yoki FIFA klubga nisbatan cheklov qo'ygan bo'lsa;
- ro'yxatdan o'tkazilgan legioner tegishli davlat organi tomonidan chet el fuqarosiga O'zbekistonda mehnat faoliyati huquqini beruvchi tasdiqnoma olmagan bo'lsa.

13.8. Legioner futbolchi va xorijiy mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun to'lov miqdori Liga Ijroiya qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan eng so'nggi qaror asosida belgilanadi.

13.9. Klub har qanday xorijlik mutaxassis bilan shartnoma tuzish oldidan uning litsenziyasi OFK talabiga to'g'ri kelishi masalasini Assotsiatsiya texnik bo'limi bilan kelishishi talab etiladi.

14-bob

Liga ro'yxatidan o'tgan futbolchining musobaqadagi ishtirokini tartibga solish

14.1. Liga klubning futbolchi bilan tuzgan mehnat shartnomasini yilning istalgan davrida ro'yxatdan o'tkazadi. Biroq futbolchini mavsum qaydnomasiga kiritishga faqatgina transfer oynasi vaqtida ruxsat etiladi (U19 chempionati bundan mustasno).

14.2. Mehnat shartnomasi Liga ro'yxatidan o'tkazilgan futbolchining boshqa har qanday klub (ijara shartnomasi mavjud bo'lgan holat bundan mustasno) yoki Ligadan boshqa tashkilot o'tkazadigan musobaqa doirasida maydonga tushishi taqiqlanadi. Bunday holat aniqlansa, uning klubiga nisbatan jarima sanksiyasi qo'llaniladi.

14.3. Superliga klubi 35–40 nafar futbolchini mavsum uchun qaydnomaga kiritishi talab etiladi. Bunda klub 22 nafargacha 2002-yil va undan oldin tavallud topgan futbolchini qaydnomaga kirita oladi. Mazkur limitdan tashqari yana 2 nafar darvozabonni 23 va 24-o'yinchi (2001 va undan oldin tug'ilgan) sifatida ro'yxatdan o'tkazishga ruxsat etiladi.

Klub 2006-yil va undan kichik yoshdagi futbolchini yuqoridagi cheklovdan tashqari ro'yxatdan o'tkazishga haqli. Bunda Superliga klubining umumiy futbolchilari soni 60 nafardan oshmasligi kerak.

14.4. U21 chempionatida 2003-yil va undan kichik yoshdagi futbolchi hamda 2002-yil va undan kichik yoshdagi darvozabon to'p surishiga ruxsat etiladi.

14.5. Klub U21 chempionati uchrashuvi qaydnomasiga 2002-yil va undan katta faqatgina 2 nafar futbolchini kiritish uchun ruxsat etiladi (2002-yilda tug'ilgan darvozabon bundan mustasno).

14.6. Klub U19 chempionatida ishtirok etuvchi jamoasining mavsum uchun qaydnomasiga kamida 20 nafar 2006-yil (darvozabon uchun 2005) va undan keyin tug'ilgan futbolchini kiritishi talab etiladi.

14.7. U19 chempionati uchun kelishuv bitimi bilan ro'yxatdan o'tishga faqatgina klub qoshida tashkil etilgan yoki Assotsiatsiya tasarrufidagi maktab/akademiya tarbiyalanuvchisiga ruxsat etiladi. Boshqa har qanday holatda futbolchi bilan mehnat shartnomasi tuzilgan bo'lishi talab etiladi.

14.8. Proliga klubi 35–45 nafar (2005-yil va undan katta 25 nafar futbolchiga ruxsat etiladi) futbolchini mavsum uchun qaydnomaga kiritishi talab etiladi. Klub 2006-yil va undan kichik yoshdagi futbolchini yuqoridagi cheklovdan tashqari ro'yxatdan o'tkazishga haqli. Bunda Proliga klubining umumiy futbolchilari soni 60 nafardan oshmasligi shart.

14.9. Klubga OFK litsenziyasini qo'lga kiritish shartida Birinchi liga musobaqasi uchun o'z farm jamoasini ro'yxatdan o'tkazishga ruxsat beriladi. Bunda klubning boshqa tashkilotlar hamda o'z rasmiylari oldida bajarilmay qolgan moliyaviy majburiyati bo'lmasligi talab etiladi.

14.10. Farm jamoaning mavsum uchun qaydnomasidan 22–25 nafar futbolchi joy olishi talab etiladi.

14.11. Klub yoki farm jamoaning 2006-yil va undan keyin tug'ilgan futbolchisiga U19 chempionatida ishtirok etish uchun ruxsat etiladi.

14.12. Farm jamoa uchun ro'yxatdan o'tgan futbolchi shu klubning asosiy hamda U21 tarkibi safida maydonga tusha olmaydi.

14.13. Klub boshqa bir klubga bir mavsumning o'zida 2 nafardan ortiq bo'lmagan futbolchini ijaraga berishga haqli.

14.14. Klub bir mavsum davomida umumiy hisobda 6 nafargacha futbolchini o'zi ishtirok etayotgan liganing boshqa klubiga ijaraga berishga haqli (2003-yil va undan keyin tug'ilgan futbolchi mazkur limitdan mustasno).

14.15. Klubga ijara shartnomasi asosida kelib qo'shilgan futbolchi o'zining asl jamoasiga qarshi o'yinda maydonga tushishga haqli. Futbolchiga egalik qiluvchi klub shu futbolchini ikkinchi tomonga ijaraga berayotganda mazkur qoidani chetlab o'tishi mumkin bo'lgan har qanday shart qo'yishi taqiqlanadi.

14.16. U19 chempionatida kelishuv bitimi bilan ro'yxatdan o'tgan futbolchi shu maktab/akademiya/klub safida Assotsiatsiya va HA tomonidan o'tkaziladigan musobaqada ham to'p surishga haqli. Biroq uning boshqa maktab/akademiya/klub safida bir vaqtning o'zida qayta ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin emas.

14.17. Klub U10, U12, U14, U16, ayollar U16 jamoasi uchun 20–22 nafar futbolchini shu yosh toifasidagi musobaqaning alohida Nizomida ko'rsatilgan sanaga qadar Assotsiatsiya ro'yxatidan o'tkazishi talab etiladi.

15-bob

Klub, klub rasmiysi hamda futbolchisi majburiyatini tartibga solish

15.1. Klub reglamentda belgilangan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun javobgar hisoblanadi.

15.2. Klub vakili yuqori darajadagi intizom, tartiblilik, uyushqoqlik, o'zaro va tomoshabinlarga nisbatan hurmatni namoyish etib, mazkur reglamentning barcha talablariga rioya qilishi talab etiladi.

15.3. Klub o'z vakilining xulq-atvori uchun bevosita mas'ul. Klub a'zolarining Liga komissari, nazoratchi va hakam harakatiga aralashishi taqiqlanadi.

15.4. Klub o'z tomoshabinlari (jamo muxlislari), shuningdek, klub nomidan biror-bir uchrashuvda muayyan vazifani bajarayotgan har qanday shaxs xulqi uchun javobgar hisoblanadi.

15.5. Klub hamda stadion uchrashuv o'tkazilishi bilan bog'liq zarur tashkiliy masalalarni hal etish uchun mas'ul hisoblanadi. Ular uchrashuv xavfsizligi hamda tez tibbiy yordam uchun mas'ul organlar bilan hamkorlikda uchrashuvdan oldin, uchrashuv davomida va uchrashuvdan keyin stadionda, unga tutash hududda intizom hamda jamoatchilik tartibini saqlash uchun barcha zarur chorani ko'rishi talab etiladi.

15.6. Klub mazkur reglamentning 16.13 hamda 16.14-bandlari bo'yicha bevosita javobgar hisoblanadi.

15.7. Klub xalqaro turnir yoki xorijdagi o'quv-mashg'ulot yig'ini muddati, joyi aniq bo'lishi bilan Assotsiatsiya hamda Ligani bundan xabardor qilishi talab etiladi.

15.8. Klub uchrashuv startiga 20 kundan kam bo'lmagan muddat bor vaqtda Ligaga mazkur uchrashuv sanasi yoki vaqtini o'zgartirish borasida batafsil asoslangan rasmiy murojaat bilan chiqishga haqli. Bunday holatda yakuniy qaror Liga tomonidan e'lon qilinadi.

15.9. Uchrashuv mezboni bo'lgan klub uchrashuv rasmiysining xavfsizligi uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

15.10. Uchrashuv rasmiysi xonasiga faqatgina Liga komissari ruxsat etgan shaxsning kirishi uchun ruxsat etiladi.

15.11. Mezbon klub uchrashuv uchun Ligadan tegishli mavsum uchun olingan kamida 8 ta to'p taqdim etishi hamda mazkur to'plardan uchrashuv yakuniga qadar to'liq foydalanilishini tashkil etishi talab etiladi.

15.12. Mezbon klub to'p uzatib turish uchun 10 nafar yoshi 12 dan kichik hamda 16 dan katta bo'lmagan, libosi maydondagi futbolchi va hakam libosidan farqlanadigan ko'ngillilar guruhini (keyingi o'rinda – ballboy) taqdim etishi talab etiladi.

15.13. Liga komissari mezbon klubdan uchrashuvni o'tkazishda ko'maklashuvchi qo'shimcha ko'ngillilar guruhini mazkur bobning 12-bandiga qo'shimcha ravishda talab qilishga haqli.

15.14. Mezbon klub zarur holatlarda ballboy Liga tomonidan taqdim etilgan ustki libosni kiyishini nazoratga olish hamda ballboy uchrashuvni o'tirib tomosha qilishi uchun ko'chma o'rindiqlik taqdim etish uchun mas'ul hisoblanadi.

15.15. Uchrashuv davomida ovoz kuchaytirgich orqali e'lon qilinadigan har qanday xabar yoki signal Liga komissari bilan kelishilgan bo'lishi talab etiladi.

15.16. Liga komissari zaruriyatdan kelib chiqib, uchrashuvni o'tkazish uchun mazkur reglamentda qayd etilmagan kerakli vositalar bilan ta'minlash masalasini mezbon klubdan talab qilishga haqli.

15.17. Mezbon klub va vaziyatdan kelib chiqib mehmon klub o'yin tugashi bilan 120 daqiqa ichida inspektorga hamda 24 soat ichida Ligaga uchrashuvning raqamli shakldagi videoyozuvini talab qilingan formatda taqdim etishi shart. Bunda tasvir shartli ravishda taymer yoqilgan holda jamoalarning maydonga chiqish paytidan to kiyinish xonasiga qaytishigacha butun uchrashuv davomida uzluksiz suratga tushirilishi zarur.

15.18. Mezbon klub stadion bilan kelishgan holda rasmiy uchrashuvni teletranslyatsiya qilish hamda VAR tizimi uzilishlarsiz ishlashini ta'minlash uchun tezligi eng kamida 100 mbit/s dan bo'lgan hamda mazkur tarmoqlardan Liga talabiga ko'ra teletranslyatsiyalar hamda VAR texnikalaridan boshqa manbalar foydalana olmaydigan 2 ta bir-biridan alohida internet tarmog'i taqdim etishi shart. Rasmiy uchrashuv davomida internet tarmog'idagi har qanday uzilish sabab jonli efir yoki translyatsiya bilan bog'liq muammoning kelib chiqishiga bevosita mezbon klub javobgar hisoblanadi.

15.19. Favqulodda holatlar hamda epidemiologik vaziyatlarda musobaqaning tashkiliy masalalari qo'shimcha reglament yoki Liganing rasmiy talabi bilan tartibga solinadi.

16-bob

Rasmiy uchrashuvni o'tkazish tartibi

16.1. Har qanday jamoaning ikki rasmiy uchrashuvi o'rtasidagi vaqt oralig'i 48 soatdan kam bo'lmasligi ta'minlanadi.

16.2. Uchrashuv davomiyligi 45 daqiqadan ikki taym bo'ladi. Taymlar orasidagi tanaffus 15 daqiqani tashkil etadi.

16.3. Ob-havo haroratidan kelib chiqib, uchrashuv bosh hakami klublardan birining taklifiga ko'ra, bo'limlar davomida bir marta suv ichish uchun 1 daqiqadan ko'p bo'lmagan tanaffus e'lon qilishi mumkin.

16.4. Musobaqa oldi jarayoni quyidagilarni o'z ichiga oladi (uchrashuv startigacha):

- 180 daqiqa — Liga komissarining stadiongacha kelishi;
 - 90 daqiqa — nazoratchi va hakamning kelishi;
 - 90 daqiqa — jamoaning kelishi;
 - 75 daqiqa — uchrashuv qaydnomasini to'ldirish uchun futbolchi litsenziyasini Liga komissariga taqdim etish;
 - 50–20 daqiqa — chigalyozdi mashg'uloti;
 - 15 daqiqa — futbolchi libosi va undagi belgilar tekshiruvi, raqamning litsenziyaga muvofiqligi;
 - 10-5 daqiqa — jamoaning tribuna osti yo'lakchasida saflanishi.
- Klub Liga komissari taqdim etgan Countdown tartibiga qat'i rioya qilishi lozim.

16.5. Musobaqa davomida almashtiriladigan futbolchilarning ruxsat etilgan soni:

- Superliga/Proliga — uch urinishda 5 ta (bunda tanaffus vaqtidagi o'zgarish urinish sifatida qayd etilmaydi);
- U19/U21 — umumiy 7 ta, bunda o'yin vaqtida uch urinishda 5 ta hamda tanaffus vaqtida qo'shimcha 2 ta.

16.6. Klub musobaqa davomida Liga tomonidan taqdim etilgan professional futbol to'plaridan foydalanishi shart. Klub mashg'ulotlari uchun to'plarni mustaqil ravishda sotib olishi talab etiladi.

16.7. Klub uchrashuv startidan 75 daqiqa avval elektron qaydnomaga futbolchilarning ismi-familiyasi, raqamlarini o'sish tartibida hamda amplusini, rasmiy shaxslar ismi-familiyasi va lavozimini litsenziyada ko'rsatilgani bo'yicha kiritish uchun Liga komissariga futbolchilar va klub rasmiylari litsenziyasini taqdim etishi talab etiladi.

16.8. Klub uchrashuv startidan 75 daqiqa avval Liga komissariga klub asosiy tarkibi futbolchilarining maydondagi joylashuvi aniq ko'rsatilgan sxemani taqdim etishi talab etiladi.

16.9. Musobaqa qatnashchisi uchrashuv qaydnomasiga 11 nafar asosiy va 9 nafar zaxira futbolchisini kiritishi uchun ruxsat etiladi.

16.10. Uchrashuv qaydnomasidan Liga litsenziyaga ega bo'lgan 9 nafargacha rasmiy shaxs joy olishi uchun ruxsat etiladi.

16.11. Mazkur bobning 10-bandida ko'rsatilgan klub rasmiylari orasida Liga ro'yxatidan o'tgan klub shifokorining bo'lishi shart.

16.12. Klub uchrashuv qaydnomasiga diskvalifikatsiya qilingan futbolchini kiritgan holatda g'abala qozonsa yoki durang o'ynasa, unga nisbatan mazkur Reglamentning 10.11-bandi bo'yicha texnik mag'lubiyat yoziladi. Bunda ushbu uchrashuvda urilgan gollar hisobdan chiqariladi, ammo olingan ogohlantirish va chetlashtirishlar o'z kuchida qoladi.

16.13. Diskvalifikatsiya qilingan futbolchini qaydnomaga kiritgan holatni sodir etgan klub o'sha uchrashuvda 0:3 dan yirik ko'rinishda mag'lubiyatga uchragan bo'lsa, texnik mag'lubiyat mazkur Reglamentning 10.13-bandi bo'yicha mavjud hisob bilan yoziladi.

16.14. Klub stadiongacha kechikib yetib kelgan futbolchini qaydnomaga uchrashuv startiga 20 daqiqa qolguniga qadar kiritishga haqli. Buning uchun klub rasmiysi Liga komissariga murojaat qilishi talab etiladi.

16.15. Liga komissari hamda bosh murabbiy tomonidan imzolangan uchrashuv qaydnomasiga biror futbolchining kutilmagan jarohati sabab uchrashuv startigacha o'zgartirish kiritish zaruriyati vujudga kelsa, qaydnomaga o'zgartirish kiritiladi. Bunda jarohatlangan futbolchiga uchrashuvni zaxira o'rindig'ida kuzatish hamda faqatgina keyingi rasmiy uchrashuvdan boshlab maydonga tushish uchun ruxsat etiladi.

16.16. Klub shu bobning 15-bandidan kelib chiqib uchrashuv startigacha biror futbolchini almashtirishga majbur bo'lsa, klub uchrashuv davomida shu bobning 5-bandida ko'rsatilgan limitdan to'liq foydalanish huquqini saqlab qoladi.

16.17. Mehmon klub shu bobning 4-bandi bo'yicha stadiongacha belgilangan vaqtdan kechikib yetib kelsa, klub rasmiysi Liga komissaridan futbolchilar kiyim almashtirishi hamda chigalyozdi mashg'ulotlarini o'tkazishi uchun umumiy hisobda yana 15 daqiqa vaqt so'rashga haqli.

16.18. Uchrashuv belgilangan vaqtdan 16 daqiqaga kechikishni boshlasa, aybdor klubga nisbatan mazkur reglamentning 10.11-bandi qo'llaniladi.

16.19. Tez tibbiy yordam mashinalari yoki xavfsizlik uchun javobgar organlarning kechikishi oqibatida uchrashuv o'z vaqtida start olmasa, Liga komissari 30 daqiqadan keyin mezbon klubga nisbatan reglamentning 10.11-bandini qo'llashga haqli bo'ladi.

16.20. Klub vakili uchun litsenziya musobaqada ishtirok etish va tegishli zonaga kirish huquqini beruvchi yagona hujjat hisoblanadi. Litsenziya egasi uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan taqdirida texnik zonaga qo'yiladi.

16.21. Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan shaxs hamda zaxira futbolchisi texnik zonada maxsus ajratilgan joyda bo'lishi shart. Mezbon jamoa zaxira hakamining chap tomonida, mehmon jamoa o'ng tomonida maydonga qarab joylashadi.

16.22. Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan rasmiy shaxs ko'ksida texnik zonaga kirishga ruxsat beruvchi litsenziya bo'lishi talab etiladi (bosh murabbiy bundan mustasno).

16.23. Uchrashuv qaydnomasiga kirgan zaxira futbolchisiga o'z zaxira o'rindig'iga eng yaqin maydon burchagida to'psiz (darvozabon bundan mustasno) chigalyozdi mashg'ulotini bajarish uchun ruxsat etiladi.

16.24. Uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan zaxira futbolchilaridan faqat 6 nafariga o'z zaxira o'rindig'iga yaqin burchak bayrog'i zonasida chigalyozdi mashqlarini bajarishga ruxsat beriladi.

16.25. Shu bobning 23-bandidagi chigalyozdi mashg'ulotida klub rasmiylari orasidan jismoniy tayyorgarlik bo'yicha murabbiy hamda darvozabonlar murabbiyining ishtirok etishi uchun ruxsat etiladi.

16.26. Shu bobning 23, 24 hamda 25-bandlarida qayd etilgan shaxslar libosi maydondagi futbolchilar va hakamlar libosidan farqlanishi talab etiladi.

16.27. Texnik zonada tamaki va boshqa turdagi mahsulotlar chekish, spirtli ichimliklar iste'mol qilish taqiqlanadi.

16.28. Uchrashuv qaydnomasidan joy olgan rasmiy shaxsga mobil aloqa vositasidan foydalanish taqiqlanadi (maxsus ruxsat etilgan texnik vositalar bundan mustasno). Bunda hech qanday texnik vosita uchrashuv rasmiylariga e'tiroz bildirish uchun asos bo'lmasligi shart.

16.29. Klub bosh murabbiyi texnik zonada dress-kodga amal qilish talab etiladi.

16.30. Uchrashuv vaqtida klub rasmiylari orasidan faqatgina bosh murabbiyga texnik zonada futbolchilarga ko'rsatma berish uchun ruxsat etiladi. Bunda bosh murabbiy chet el fuqarosi bo'lib, futbolchilar bilan muloqot uchun tarjimon yordami zarur bo'lsa, bosh murabbiy ko'rsatma berishda tarjimondan foydalanishga haqli.

16.31. Klub bosh murabbiyi diskvalifikatsiya yoki boshqa sabab bilan uchrashuvda ishtirok eta olmayotgan bo'lsa, shu bobning 30-bandi bo'yicha texnik zonada futbolchilarga ko'rsatma berish vakolati bor klub rasmiysi qaydnoma to'ldirish jarayonida Liga komissariga alohida ko'rsatilishi talab etiladi.

16.32. Mezbon klub uchrashuv startidan 15 daqiqa oldin hamda tanaffus vaqtida 3-5 daqiqa davomida maydon chimini sug'orishi talab etiladi. Ob-havo sharoitidan kelib chiqib, mazkur masala Liga komissari tomonidan tartibga solinadi.

16.33. Rasmiy uchrashuv o'tadigan maydon chimi uchrashuv startiga 6 soat vaqt qolguniga qadar baraban yoki silindr turidagi maysao'rgich bilan to'liq o'rib bo'linishi shart.

16.34. Maydon chiziqlari uchrashuv startiga 6 soat vaqt qolguniga qadar vodoemulsiya yordamida maxsus markerda bo'yalishi lozim.

Mezbon klub o'yinoldi rasmiy mashg'ulot startiga 1 soat vaqt qolguniga qadar maydon chiziqlari bo'lishini tashkil etishi lozim.

16.35. Mezbon klub rasmiy uchrashuvning 75-daqiqasida stadiongga tashrif buyurgan muxlislar sonini rasman e'lon qilishi va mazkur raqamlarni stadion tablosida aks ettirishi talab etiladi.

16.36. Musobaqa Liga tomonidan belgilangan muddat va vaqtda o'tkaziladi. Vaqti (kun va soat) quyidagi hollarda o'zgartirilishi mumkin:

- oldindan taxmin qilishning imkoni bo'lmagan fors-major vaziyat va hodisalarning yuzaga kelishi natijasida uchrashuvni o'tkazish, boshlash, davom ettirish, qayta boshlash va tugatish imkoni bo'lmaganida. Bunday hodisalar qatoriga avariya, yong'in, suv toshqin, zilzila, epidemiologik va boshqa tabiiy ofatlar, shuningdek, musobaqa tashkilotchilari va futbolchilarga bog'liq bo'lmagan har qanday boshqa tafsilotlar kiradi. Bunday holatlarda uchrashuvning qachon va qay tartibda davom ettirilishi masalasi Liga tomonidan belgilanadi;
- musobaqa jadvaliga Liga tomonidan o'zgartirish kiritilganida.

16.37. Elektr yoritish tizimidagi muammo 60 daqiqa ichida bartaraf etilmagani oqibatida uchrashuvni boshlash, davom ettirish, qayta boshlash va tugatish imkoni bo'lmasa, maydon egasi bo'lgan klubga nisbatan mazkur reglamentning 10.11 yoki 10.13-bandlardan biri bo'yicha texnik mag'lubiyat yoziladi.

Musobaqa qatnashchisining libosiga qo'yiladigan talablar

17.1. Musobaqa ishtirokchilarining futbolkasiga klub ramzi tushiriladi. Ramz o'lchami 100 sm² gacha (10 sm x 10 sm) bo'lib, u futbolkaning chap ko'krak qismida joylashadi.

17.2. Klub har beshinchi chempionlik maqomini qo'lga kiritgach, klub ramzining tepa qismida bir dona oltin yulduzchani aks ettirish huquqiga ega.

17.3. Futbolkaning o'ng yengida Liga ramzi, chap yengida esa Liga titul homiysi ramzi aks etishi talab etiladi.

17.4. Futbolka old tomonining yurak (markaz) qismida O'zbekiston davlat bayrog'i aks etishi talab etiladi. Bayroq o'lchami 24 sm² (4 sm x 6 sm) bo'lishi lozim. Bunda bayroq alohida ajralib turishi uchun uning atrofi oq chiziq bilan qoplanadi. Chiziq qalinligi 3 mm bo'lishi tavsiya etiladi.

17.5. Futbolka orqa tomonining tepa kurak qismida futbolka egasining ismi yoki familiyasi (taxallus) o'zbek lotin alifbosida yozilgan bo'lishi talab etiladi. Liga klubdan futbolchining ism yoki familiyasini o'zbek tilida to'g'ri yozishni talab etishga haqli. Bunda ism yoki familiya balandligi 5-8 sm oralig'ida hamda "Ardela edge" shriftida bo'lishi shart.

17.6. Futbolchining litsenziyasida ko'rsatilgan futbolka raqami uning futbolkasining orqa tomonida — bel hamda kurak qismi oralig'ida balandligi 25–35 sm hamda "Ardela edge" shrifti bilan aks etishi talab etiladi.

17.7. Futbolchi shortisining o'ng oyoq pastki qismida futbolchining futbolkasidagi raqam balandligi 10–15 sm oralig'ida aks ettirilishi talab etiladi.

17.8. Shu bobning 5, 6 hamda 7-bandlarida ko'rsatilgan yozuvlar libos rangidan aniq farqlanishi hamda hamma uchun birdek ko'rimli bo'lishi shart. Bunda aralash rangli futbolkada yozuv alohida rangdagi to'g'ri to'rtburchak yoki futbolka ranglariga proporsional rangda ko'rsatiladi.

17.9. Futbolkadagi barcha yozuvlar bir xil rangda bo'lishi shart. Och rangli futbolkaga tilla rangda yozuv yozish taqiqlanadi.

17.10. U19 hamda U21 chempionatida ishtirok etuvchi jamoa libosi asosiy jamoaniki bilan bir xil bo'lishi talab etiladi.

17.11. U19, U21 hamda asosiy tarkib futbolchilarining raqami bir-birini takrorlamasligi talab etiladi.

17.12. Klub ro'yxatdan o'tish oldidan Ligaga yangi mavsum uchun liboslarning 3D formatini taqdim etishi talab etiladi. Musobaqa startiga 10 kun vaqt qolgunicha klub futbolchilar va darvozabonlar libosining asosiy hamda rezerv ranglari haqida to'liq axborot taqdim etishi shart.

17.13. Klub mezbon maqomida o'tkazadigan har qanday rasmiy uchrashuvda faqatgina mavsum uchun tanlangan uy libosida maydonga tushishi talab etiladi. Liga mezbon klubning uy libosi rangidan kelib chiqib, uchrashuv oldidan mehmon maqomidagi klub uchun libos rangini belgilashga haqli.

17.14. Darvozabon libosi ikki jamoa va hakamlar libosidan farqlanishi talab etiladi.

17.15. Futbolchi qaydnomaga Liga tomonidan taqdim etilgan litsenziyada ko'rsatilgan raqam bilan kiritilishi va aynan shu raqam aks etgan libosda maydonga tushishi talab etiladi.

18-bob

Klubning OAV bilan ishlashini tartibga solish

18.1. Liga bosh axborot hamkorini belgilash huquqiga ega.

18.2. Klub o'z rasmiy saytiga ega bo'lishi va mazkur sayt doimiy yangilanib borishi shart.

18.3. Klub matbuot xizmati boshqa klub, shuningdek, Ligaga aloqador ma'lumotni ruxsatsiz chop etishga haqli emas.

18.4. Klub matbuot xizmati o'z stadionida o'tkazilgan uchrashuvdan fotosuratlarini Liga matbuot xizmati talabiga ko'ra taqdim etishi shart.

18.5. Stadion darvozalari chizig'i ortida Liga akkreditatsiyasidan o'tgan, maxsus nimcha kiygan tele va fotomuxbirlar ishlashi uchun ruxsat beriladi. Ularning uchrashuvdan oldin, uning davomida va uchrashuvdan keyin ham belgilangan hududdan tashqarida harakatlanishi mumkin emas.

18.6. Klub bosh murabbiyi uchrashuvdan keyingi matbuot anjumanida ishtirok etishi shart. Uchrashuv tugaganidan keyingi 15 daqiqa oralig'ida mag'lub bo'lgan yoki mehmon jamoa birinchi bo'lib matbuot anjumaniga taklif etiladi.

18.7. Futbolchi va murabbiy uchrashuvdan oldin va keyin bo'ladigan flesh-intervyuda ishtirok etishi, shuningdek, o'yindan keyin har bir futbolchi maxsus mikst-zona orqali stadionni tark etishi shart.

18.8. Klub matbuot xizmati uchrashuvdan keyingi matbuot anjumanini o'tkazish uchun mas'ul hisoblanadi.

18.9. Matbuot xizmati vakili klub ishtirokidagi safar uchrashuviga klub hisobidan borishi va matbuot anjumanida ishtirok etishi shart.

19-bob

Klubning musobaqada ishtirok etishi uchun moliyaviy shartlar

19.1. Klub Liga musobaqasida qatnashish uchun belgilangan miqdorda qatnashchilik badal pulini to'lab berishi talab etiladi. Badal miqdori Liga Ijroiya qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

19.2. Musobaqada ishtirok etuvchi klub rasmiy uchrashuvni tashkil etish bilan bog'liq barcha sarf-xarajatni o'z zimmasiga oladi.

19.3. Agar klub musobaqa qatnashchilari tarkibidan chiqarilgan bo'lsa, u tomonidan avval amalga oshirilgan badal va boshqa to'lovlar qaytarilmaydi.

19.4. Qatnashchilar tarkibidan chiqarilgan klubga badal pulidan qolgan qarzdorlikni to'liq to'lab berish shartida Liga tomonidan tashkil etiladigan musobaqada ishtirok etishiga ruxsat etiladi.

19.5. Liga o'zi tashkil etayotgan musobaqada faoliyat olib boruvchi komissarlari xizmati uchun to'lovlar, uning ikki tomonlama yo'lkirasi hamda yashashi uchun xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

19.6. Musobaqada faoliyat olib boruvchi hakamlar va nazoratchi uchun ikki tomonlama yo'lkira Markaz tomonidan amalga oshiriladi.

19.7. Uchrashuv rasmiylarining yashashi (komissar bundan mustasno), ovqatlanishi, kutib olinishi, kuzatilishi bilan bog'liq xarajatlar mezbon klub hisobidan amalga oshiriladi.

19.8. Musobaqada faoliyat olib boruvchi hakamlar hamda nazoratchi uchun xizmat to'lovlari Markaz tomonidan amalga oshiriladi.

19.9. Liga Ijroiya qo'mitasi badal to'lovi, jarimalar bo'yicha qarzdorlik, shuningdek, legioner futbolchi va xorijiy mutaxassisni ro'yxatdan o'tkazganlik uchun belgilangan to'lovni to'lamagan yoki belgilangan muddatda to'liq to'lamagan klubni musobaqa qatnashchilari safidan chetlashtirishga, Liga esa bunday klubga nisbatan transfer oynasi davomida yangi futbolchini ro'yxatdan o'tkazishga taqiq qo'yishga haqli.

19.10. Rasmiy uchrashuvga mezbonlik qilayotgan klub mehmon klubning rasmiy murojaatiga asosan shu klub muxlislari aniq bir sektordan birgalikda joy olishini ta'minlashi hamda mehmon klub uchun shu sektordan 100 ta bepul chipta ajratishi shart. Buning uchun mehmon klub uchrashuv startigacha 48 soat vaqt qolganiga qadar mezbon klubga rasmiy murojaat bilan chiqishi talab etiladi.

19.11. Klub o'ziga birlashtirilgan homiy tashkilot bilan kelishgan holda olgan homiylik mablag'laridan tashqari boshqa shartnomaviy munosabatlar doirasida olgan mablag'lari, shu jumladan, klubning o'zi ishlab topgan mablag'larini asoslantirilgan ma'lumotlar bilan Ligaga taqdim etib borishi bosqichma-bosqich yo'lga qo'yiladi.

19.12. Mazkur bobning 11-bandidan kelib chiqib, 2025-yilgi mavsumdan boshlab klub uch yo'nalish orqali ishlab topishi mumkin bo'lgan mablag'lari bo'yicha asoslantirilgan ma'lumotni Ligaga taqdim etishi tavsiya etiladi:

- rasmiy uchrashuv uchun chiptalar savdosidan ishlab topgan mablag'i;
- futbolchini tarbiyalaganlik uchun mashg'ulot kompensatsiyasi yoki birdamlik mexanizmidan ishlab topgan mablag'i;
- futbolchini ijaraga berish yoki transfer qilish orqali ishlab topgan mablag'i.

Asoslantirilgan ma'lumotlar uchinchi tomonga oshkor qilinmaydi hamda uning asosida Liga test shaklida klublarning moliyaviy reytingini shakllantirib boradi. Mazkur reyting klubga 2027-yilgi futbol mavsumidan e'tiboran badal hamda legioner futbolchi uchun to'lovlar summasidan chegirmalarga olish, transfer oynasi davomida ro'yxatga olinadigan yangi futbolchilar hamda legioner futbolchilar uchun limitlar sonini oshirish kabi masalalarda imtiyozlarga ega bo'lish imkonini beradi.

19.13. "Litsenziyalash reglamenti" talabiga ko'ra, klub yilda ikki marta Assotsiatsiya tomonidan jalb etilgan mustaqil auditor tomonidan audit tekshiruvdan o'tkaziladi. Audit xizmati uchun to'lov klub tomonidan qoplanadi.

20-bob

Liga komissarining musobaqadagi faoliyatini tartibga solish

20.1. Uchrashuvni tashkil etish va o'tkazishni nazorat qilish uchun Liga tomonidan komissar tayinlanadi.

20.2. Uchrashuvni boshlash yoki uni o'tkazmaslik masalasi bevosita Liga komissari tomonidan hal qilinadi.

20.3. Liga komissarlari ro'yxati maxsus o'quv-seminarida ishtirok etib, uning yakuniga ko'ra tavsiya etilgan mutaxassislar orasidan shakllantiriladi.

20.4. Liga komissari uchrashuv startiga 60 daqiqa qolguniga qadar zaxira hakami va klub rasmiysi bilan birgalikda uchrashuv qaydnomasiga futbolchilarning ism-familiyasi,

ampluasi va raqamlarini (o'sish tartibida), shuningdek, rasmiy shaxslarning lavozimini ko'rsatgan holda kiritadi.

20.5. Liga komissari uchrashuvni mazkur Reglamentga muvofiq tashkil etish, xavfsiz o'tkazilishini nazorat qilish, xuquq-tartibot organlari, stadion va klub rasmiylari, futbolchilar, tomoshabinlar harakatlarini baholash uchun mas'ul hisoblanadi.

20.6. Liga komissari uchrashuvga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish borasida bahsli masalalar yuzaga kelgan hollarda xal etuvchi ovozga ega.

20.7. Nazoratchi va hakamlar brigadasi Liga komissariga bo'ysunadi.

20.8. Liga komissari bilan bog'liq majburiyatlar va komissarlikka oid vakolatlar "Komissar yo'riqnomasi" da aks etadi.

21-bob

Musobaqada hakamlik qilishni tartibga solish

21.1. Hakamlik mazkur reglament va IFAB tomonidan qabul qilingan o'zgartirish, qo'shimchalar asosida amalga oshiriladi.

21.2. Musobaqada Markaz tomonidan tayinlangan hakamlar faoliyat olib boradi.

21.3. Assotsiatsiya va Liga shtat xodimi, HA rahbari, shuningdek, klubda faoliyat olib boruvchi shaxsning hakamlik qilishiga yo'l qo'yilmaydi.

21.4. Klub uchrashuvga tayinlangan hakamni almashtirish borasida murojaat qilishga haqli emas.

21.5. Uchrashuvga tayinlangan hakamlar brigadasi unga yetib kela olmasa, Markaz uchrashuvga HA hakamlaridan birini tayinlaydi. Yordamchi hakamlardan biri biror sababga ko'ra maydonga chiqa olmasa, zaxira hakami uning o'rnini egallaydi va bir vaqtning o'zida zaxira hakami vazifasini ham bajaradi.

21.6. Zaxira hakami Liga komissari bilan birgalikda klub rasmiylari litsenziyasini tekshiradi. Klub rahbarlari hamda klub rasmiy shaxslari futbolchilarni uchrashuvda ishtirok etishi qoidalariga rioya qilishi uchun mas'ul.

21.7. Maydonga chiqishdan avval hakamlar brigadasi uchrashuv qaydnomasiga kiritilgan futbolchilar litsenziyasini tekshirishi, shuningdek, futbolchilarning raqamlari uchrashuv qaydnomasiga mos ekanligini solishtirishi talab etiladi.

21.8. Futbolchini almashtirish oldidan zaxira hakamiga almashtirish varaqasi taqdim etiladi.

21.9. Zaxira hakami maydon perimetri bo'ylab texnik va boshqa zonalarga oid xavfsizlik qoidalariga rioya qilinishi uchun mas'ul. U to'p uzatib turadigan yosh futbolchilar va o'z xizmat vazifasini bajaradigan boshqa texnik xodimlarga tegishli yo'riqnoma beradi.

21.10. Uchrashuv yakunlangandan so'ng bosh hakam Liga komissari bilan birga 30 daqiqa davomida uchrashuv qaydnomasini to'ldirishi talab etiladi. Agar uchrashuv davomida ogohlantirishlar, chetlashtirishlar va futbolchilar jarohatlari, shuningdek, stadionda tartibbuzarliklar yuz bergan bo'lsa, bosh hakam Liga komissari bilan birgalikda bu haqda batafsil uchrashuv qaydnomasida bayon etishi shart.

21.11. Uchrashuvdan oldin, uchrashuv davomida va uchrashuvdan keyin, shuningdek, hakamlar xonasida yoki hakamlar brigadasining yo'lida yuz bergan barcha noxushliklar va chetlatishlar (ikkinchi ogohlantirish va "yaqqol gol urish uchun imkoniyatidan mahrum qilish" uchun chetlashtirish bundan mustasno) haqida bosh hakam va uning yordamchilari komissarni ogohlantirib, Liga nomiga bildirgi xati yuborishi shart.

21.12. Hakam uchrashuvda yuz bergan ogohlantirish yoki chetlatish, boshqa noxushliklar haqida ma'lumotlarni qaydnomaga kiritishni Liga komissariga bildirmagan bo'lsa, u Assotsiatsiya "Intizom kodeksi"ga muvofiq musobaqalarda faoliyat olib borishdan ma'lum muddatga chetlashtiriladi.

21.13. Assotsiatsiya va Liga o'zaro kelishgan holda musobaqaga xorijlik hakam yoki hakamlar guruhini jalb qilishga haqli.

21.14. Hakamlar brigadasi Liga komissariga bo'ysunadi.

22-bob

Musobaqada nazoratchilik qilishni tartibga solish

22.1. Musobaqada Markaz tomonidan tayinlangan nazoratchi faoliyat olib boradi.

22.2. Klub uchrashuvga tayinlangan nazoratchini almashtirish borasida murojaat bilan chiqishga haqli emas.

22.3. Nazoratchi mazkur reglament va IFAB tomonidan qabul qilingan o'zgartirish, qo'shimchalar, "Futbol bo'yicha musobaqalarda hakamlik sifati uchun hakamlarni baholash bo'yicha yo'riqnoma" talablariga qat'i rioya etishi shart.

22.4. Liga komissari ishtirok etmayotgan uchrashuvda Markaz nazoratchisi uchrashuv davomida Liga komissari vazifasini bajarishi talab etiladi.

22.5. Nazoratchi Liga komissariga bo'ysunadi.

23-bob

Hakam qaroriga shikoyat yoki e'tiroz berish tartibi

23.1. Hakam qarorlari bo'yicha shikoyat yoki e'tiroz mazkur reglamentga muvofiq beriladi va ko'rib chiqiladi.

23.2. Hakamlik sifatiga nisbatan klubda e'tirozlar mavjud bo'lsa, bosh murabbiy yoki sport direktori uchrashuv yakuniga yetganidan keyingi 30 daqiqa ichida bu haqda Liga komissariga ma'lum qilishga hamda o'z e'tirozini uchrashuv qaydnomasida imzolashni talab qilishga haqli.

23.3. Hakamlik sifatiga nisbatan rasmiy e'tiroz yozgan klub 24 soat ichida mazkur uchrashuv videoyozuvini (aniq holatlar daqiqalari bilan keltirilgan vaziyatning qisqacha ta'rifi) Ligaga taqdim etishi talab etiladi. Bunda hakamning mazkur reglament va "O'yin qoidalari" talablaridan kelib chiqqan harakat yoki harakatsizligiga nisbatan e'tiroz beriladi.

23.4. Qaydnoma uchrashuv rasmiylari tomonidan imzolab bo'lingach, shikoyat va e'tirozlar qabul qilinmaydi.

23.5. Quyidagilar ko'rib chiqilmaydi:

- belgilangan muddatda kiritilmagan shikoyat yoki e'tirozlar;
- uchrashuv qaydnomasida qayd etilmagan shikoyat yoki e'tiroz;
- 48 soat davomida klub shikoyat yoki e'tiroz uchun pullik to'lovni amalga oshirmagan shikoyat yoki e'tiroz.

23.6. Musobaqa o'tkazishni tashkil etish bilan bog'liq shikoyat yoki e'tiroz Liga komissariga uchrashuv boshlanishidan kamida 60 daqiqa oldin yozma ravishda taqdim etiladi. Liga komissari mazkur e'tiroznomani musobaqa bildirgisiga ilova qiladi.

23.7. Hakamlik bilan bog'liq shikoyat yoki e'tiroz pullik to'lov Liga hisob-raqamiga amalga oshirilganidan so'ng ko'rib chiqish uchun tegishli qo'mitaga kiritiladi. Shikoyat yoki e'tiroz mazkur shikoyat uchun to'lov amalga oshganidan keyingi 3 ish kuni ichida ko'rib chiqiladi.

Hakamlik bilan bog'liq shikoyat yoki e'tirozni ko'rib chiqish uchun to'lov:

- Superliga va Proliga uchun — 10 000 000 so'm (o'n million);
- U19 va U21 chempionati uchun — 5 000 000 so'm (besh million).

23.8. Shikoyat yoki e'tirozni ko'rib chiqish uchun amalga oshirilgan pullik to'lovning qaytarilishiga shikoyat yoki e'tirozning qanoatlantirilishi, shikoyat yoki e'tirozda keltirilgan tafsilotlarning asoslanganligi va mazkur reglamentga zid ekanligining tan olinishi asos bo'ladi.

23.9. Klub o'z shikoyat yoki e'tirozi ko'rib chiqilishi uchun to'lovni uchrashuvdan keyingi ikki bank ish kuni ichida amalga oshirmasa va bu vaqtda shikoyat yoki e'tiroz qaytarib ham olinmagan bo'lsa, mazkur klub shu bobning 7-bandida ko'rsatilgan to'lov miqdorining teng yarmini jarima sifatida to'lab berishi talab etiladi.

23.10. Klub kiritgan e'tiroz yoki shikoyatini 48 soat ichida qaytarib olsa, unga nisbatan intizomiy chora qo'llanilmaydi.

23.11. KlubFF bosh murabbiyi rasmiy uchrashuv uchun hakamlik yuzasidan e'tiroz bildirsa va ayni vaqtda klub shu bob bo'yicha belgilangan tartibda rasmiy shikoyat kiritmasa, bosh murabbiy tegishli qo'mita qarori bilan jazolanadi.



UZBEKISTAN
PROFESSIONAL FOOTBALL
LEAGUE